



Aksent va dialektning sinxron tarjimada roli

Turg'unova Irodaxon Xayrulla qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

Sinxron tarjima (Ingliz tili) yo'nalishi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksent va dialektlarning sinxron tarjima jarayoniga ta'sir ko'rsatishi, ularni yengib o'tish usullari va tarjimonlar uchun samarali strategiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: aksent, dialekt, sinxron tarjima, tarjimon, strategiyalar

Abstract: This article analyzes the impact of accents and dialects on the simultaneous interpretation process, methods to overcome them, and effective strategies for interpreters.

Keywords: accent, dialect, simultaneous interpretation, interpreter, strategies.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние акцента и диалекта на процесс синхронного перевода, методы их преодоления и эффективные стратегии для переводчиков.

Ключевые слова: акцент, диалект, синхронный перевод, переводчик, стратегии.



Sinxron tarjima – bu yuqori darajadagi kognitiv jarayon bo‘lib, tarjimon tomonidan axborotni tezkor qabul qilish, tahlil qilish va uni ma’no jihatidan aniq yetkazishni talab etadi. Biroq, bu jarayonda aksent va dialekt kabi lingvistik omillar muhim rol o‘ynaydi. Har bir til turli hududlarda o‘ziga xos talaffuz, leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu tarjima jarayoniga ta’sir qilishi mumkin. Dunyoning turli mintaqalarida bir tilning o‘ziga xos aksentlari va dialektlari mavjud bo‘lib, ular ayrim hollarda tarjima jarayonini qiyinlashtiradi. Masalan, ingliz tilining Britaniya, Amerika, Avstraliya, Hindiston aksentlari sezilarli farqlarga ega bo‘lib, tarjimon uchun tushunish va tarjima qilish jarayonida qo‘shimcha yuk yaratadi. Shunday ekan, sinxron tarjimonlar aksent va dialektlarning o‘ziga xos jihatlarini yaxshi tushunishi, ularni tezda aniqlay olishi va tarjima jarayonida to‘g‘ri strategiyalarni qo‘llay olishi zarur.

Avvalambor, aksent va dialekt tushunchalariga ta’rif berib olsak. Aksent – bu nutqning fonetik jihatiga ta’sir qiluvchi talaffuzning o‘ziga xosligidir. U so‘zlarning qanday aytilishi, urg‘ular, intonatsiya kabi omillarni o‘z ichiga oladi. Masalan, britanacha va amerikacha inglizcha aksentlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Dialekt esa, aksentdan farqli o‘laroq, nafaqat talaffuz, balki leksik va grammatik jihatdan ham o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan tilning ko‘rinishidir. Masalan, o‘zbek tilining Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo dialektlari so‘z boyligi va grammatik tuzilish jihatidan bir-biridan farq qiladi. Sinxron tarjimda esa aksent va dialekt tarjimonga bir qancha muammolar tug‘diradi. Ularning asosiysi bu tushunishdagi qiyinchiliklar hisoblanadi. Kuchli aksent bilan gapirilgan nutq tarjimon uchun tushunarsiz bo‘lishi va bu o‘z navbatida tarjimada xatoliklar bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Talaffuzdagi farqlar, ya’ni ba’zi so‘zlarning turli aksentlarda turlicha eshitilishi tarjimada noaniqlikni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, leksik va grammatik tafovutlar ham mavjud bo‘lib, tarjimonga qo‘shimcha yuk yaratdi. Bunda, leksik tafovutlar ayrim dialektlarda umumiy tilda mavjud bo‘lmagan so‘zlarning ishlatilishini anglatrsa, grammatik tafovutlar ba’zi dialektlarda grammatik



tuzlash rasmiy tildan farq qilishini bildiradi. Tajribali tarjimonlar aksent va dialektlarni yengib o‘tish uchun esa quyidagi strategiyalardan foydalanadilar:

- **Tinglash amaliyoti:** Har xil aksent va dialektlarga oid nutqlarni tinglash orqali tarjimon o‘zining fonetik sezgirligini oshiradi.
- **Oldindan tayyorgarlik:** Tarjima qilinadigan material bo‘yicha oldindan tadqiqot qilish, notiqning aksenti yoki dialekti haqida ma’lumotga ega bo‘lish muhim.
- **Kontekstual anglash:** Ayrim tushunarsiz so‘zlarni kontekst orqali taxmin qilish tarjimon uchun muhim mahorat hisoblanadi.
- **Nutq tezligi va ritmga moslashish** – Har bir aksent va dialekt o‘ziga xos tezlik va ohangga ega. Tarjimonlar turli ohang va ritmlarga moslashish orqali tushunish qobiliyatlarini oshiradilar.

Sinxron tarjimada aksent va dialekt muhim omillar bo‘lib, ular tarjimaning aniqligi va sifatiga ta’sir qiladi. Tarjimon turli aksent va dialektlarning fonetik, leksik hamda grammatik farqlarini tushunishi va ularga moslasha olishi zarur. Tajribali tarjimonlar ushbu muammolarni yengish uchun oldindan tayyorgarlik ko‘rish, aksent va dialektlarni chuqur o‘rganish, **nutq tezligi va ritmga moslashish** kabi strategiyalardan foydalanadilar. Umuman olganda, sinxron tarjimon aksent va dialekt bilan bog‘liq qiyinchiliklarni yengish uchun doimiy ravishda o‘z malakasini oshirib borishi, turli aksentlarga moslashish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar olib borishi va yangi strategiyalarni o‘zlashtirishi zarur. Bu esa tarjimaning aniqligi va sifatini ta’minlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shonazarova D. *“Sinxron tarjima va uning kelib chiqishi bo‘yicha nazariyalar”*
2. I-hsin I. Feng-lan A. Feng-lan K. *“The impact of non-native accented English on rendition accuracy in simultaneous interpreting”*
3. Axmatova N. B. - Sinxron tarjimaning asosiy prinsiplari [2020]